

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



TARJIMASHUNOSLIK MAKTABLARIDA “MILLIY KOLORIT” TUSHUNCHASINING ILMIY TAJSIFI

Mohira Umarova

O'qituvchi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar:

Tarjimashunoslik maktabi,
realiya, madaniyatga oid so‘z,
trasnliteratsiya, analog, tarjima,
tadqiqot, tarjimashunos,
milliylik, madaniyat.

Annotatsiya: Dunyo tarjimashunosligida shunday mavzular borki, ular qancha tadqiq etilsa, o‘rganilsa, yana yangi-yangi ma’lumotlar, yechilmagan masalalar hali ham borligi ko‘rinadi.

Mazkur maqolada keltirilgan mavzu ham qancha tadqiq etilsa-da, yangi taraflari chiqaveradi. Bu – milliylik mavzusidir. U butun dunyo tarjimashunoslik va tilshunoslik maktablari vakillari tomonidan o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, haligacha dolzarb mavzulardan sanaladi. Turli tarjimashunoslik maktablarida unga yondashuv masalalari qanday bo‘lgan, g‘arb va sharq tilshunos-tarjimashunos olimlari qanday terminlar orqali milliylikni tarjima asarlarda aks ettirishi, asarda milliylik deganda qanday mavzular, tushunchalar tushunilishi lozim ekanligi haqida yozilgan. Xususan, pokistonlik tilshunoslar va tarjimashunoslar milliylikni nimalar orqali o‘rganishi, ularning nuqtayi nazaridan qaysi jihatlarga ahamiyat berish lozimligi haqida, xuddi shu jihatlar o‘zbek olimlari tadqiqotlarida qanday ekanligi to‘grisida so‘z boradi. Bunda har bir mamlakat va maktab vakillari tomonidan milliylikni ifodalovchi birliklarga berilgan ta’riflar, qarashlar ularning olib borgan ilmiy tadqiqotlaridan keltirilgan ta’riflar bilan beriladi.

Shu bilan birga, mazkur ishda milliylikni asarda yuzaga chiqaruvchi eng asosiy unsur sifatida “realiya”lar xizmat qilishi, ushbu so‘zlarni tarjima jarayonida qaysi usullar orqali tarjima qilish eng ma’qul ekanligi ham olimlar fikriga tayanilgan holda asoslab ketilgan.

Bundan tashqari, g‘arb tarjimashunoslik maktabi vakili P.Nyumarkning milliylikni o‘rganilshiga oid fikr-mulohazalari va u tomonidan keltirilgan klassifikatsiya jadval

sifatida ishda o'z aksini topgan.

SCIENTIFIC DESCRIPTION OF THE CONCEPT OF "NATIONAL COLORITISM" IN SCHOOLS OF TRANSLATION STUDIES

Mohira Umarova

Teacher,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: School of translation studies, reality, word related to culture, transliteration, analogue, translation, research, translation expert, nationality, culture.

Abstract: There are topics in global translation studies that, the more they are researched and studied, the more new information and unresolved questions are still being discovered.

No matter how much research is conducted on the topic presented in this article, new aspects will emerge. This is a nationality issue. Despite the fact that it is studied by representatives of schools of translation studies and linguistics around the world, it is still considered one of the current topics. The article talks about the issues of approaching the topic of nationality in various translation schools, about the use of certain terms by Western and Eastern linguists and translators to denote nationality in translated works, about what topics and concepts should be understood by nationality in a work. In particular, it will explore how Pakistani linguists and translators study nationality, what aspects should be given importance from their point of view, and how these aspects are considered in the studies of Uzbek scientists. Moreover, the definitions and views given by representatives of each country and school to the units representing the nationality are given with definitions taken from their scientific research.

At the same time, this work, based on the opinions of scientists, substantiates the fact that "realities" serve as the main element that creates nationality in a work, and with the help of what methods it is most appropriate to translate these words.

In addition, the work reflects the opinion of the representative of Western translation studies P. Newmark regarding the study of nationality and the classification he presented is given in the form of a table.

НАУЧНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОНЯТИЯ "НАЦИОНАЛЬНЫЙ КОЛОРИТ" В ШКОЛАХ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ

Мохира Умарова

Преподаватель,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:
 системный подход,
 специальная система
 терминологии, строительное
 поле, организационные
 правила.

Аннотация: В мировом переводоведении есть темы, которые, чем больше они исследуются и изучаются, тем больше все еще обнаруживается новой информации и нерешенных вопросов.

Сколько бы исследований ни проводилось по теме, представленной в данной статье, будут возникать новые аспекты. Это тема национальности. Несмотря на то, что ее изучают представители школ переводоведения и лингвистики во всем мире, она до сих пор считается одной из актуальных тем. В статье рассказывается о вопросах подхода к теме национальности в различных переводческих школах, об использовании определённых терминов западными и восточными лингвистами и переводчиками для обозначения национальности в переводных произведениях, о том, какие темы и понятия следует понимать под национальностью в произведении. В частности, будет исследовано, как пакистанские лингвисты и переводчики изучают национальность, каким аспектам с их точки зрения следует придавать значение и как эти аспекты рассматриваются в исследованиях узбекских ученых. При этом определения и взгляды, данные представителями каждой страны и школы единицам, представляющим национальность, приведены с определениями, взятыми из их научных исследований.

В то же время в данной работе на основе мнения ученых обосновывается тот факт, что «реалии» служат основным элементом, создающим национальность в произведении, и с помощью каких методов наиболее целесообразно переводить эти слова.

Кроме того, в работе нашли отражение мнение представителя западного переводоведения П.Ньюмарка по поводу изучения национальности и в виде таблицы дана приведенная им классификация.

KIRISH

“Milliy kolorit” – keng tushuncha. Tilshunos olimlar adabiyotda va asarlarda milliy koloritni ifoda etish uchun asosan, maxsus so‘zlar –realiyalar qo‘llanilishini aytadilar. Bunday leksik birliklar tarjima jarayonida millatning har qanday o‘ziga xosligini ko‘rsatib beruvchi asosiy vositalar sanaladi.

Fanda milliy koloritni, milliylikni aks ettirish yo‘llari, qoida va usullari haqida hozirga qadar G‘arb va Sharq, rus va o‘zbek tarjimashunoslida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Har bir maktab uni ifodalashda turlicha yondashuv usollaridan, terminlardan foydalangani bilan ularning mohiyati, tub ma’nosи bir-biriga juda o‘xshaydi. Masalan, G‘arb tarjimashunoslilik maktabi vakillari milliylikni ko‘proq madaniyatga bog‘lagan holda tadqiq etgan hamda aksariyat tadqiqot ishlari madaniyat va milliylikni frazeologizmlar orqali o‘rganilishiga bag‘ishlangan. Mazkur maktab vakillari tomonidan mamlakatning milliyligini o‘zida namoyon etuvchi unsur sifatida frazeologizmlar keltiriladi va leksik qatlamda milliylikni o‘rganishda ular tomonidan “madaniyatga oid so‘zlar”, “madaniyatga oid o‘ziga xos so‘zlar\birliklar” tushunchalari keng qo‘llaniladi.

G‘arb tarjimashunoslilik maktabida madaniyat bilan bog‘liq birliklar tasnifi

(P.Nyumark talqinida)

| | |
|-----|--|
| 1. | Ekologiyaga oid so‘zlar (flora, fauna, shamollar, tepaliklar va pastliklar) |
| 2. | Moddiy madaniyatga oid so‘zlar (taom, uylar, kiyimlar, shaharlar va transport turlari) |
| 3. | Ijtimoiy madaniyatga oid so‘zlar (bo‘sh vaqt va ish) |
| 4. | An’ana va milliy qadriyatlarga oid so‘zlar |
| 5. | Tashkilotlar va muassasalar nomlariga oid so‘zlar |
| 6. | Turli tadbirlar nomlariga oid so‘zlar |
| 7. | Konseptlar |
| 8. | Taomillar (ma’muriy, siyosiy, diniy va badiiy) bilan bog‘liq so‘zlar |
| 9. | Odatlar bilan bog‘liq so‘zlar |
| 10. | Imo-ishoralarga doir so‘zlar ¹ |

P.Nyumark keltirgan tasnifga tayangan holda ko‘plab jahon tilshunoslari o‘z tadqiqot ishlarini olib borganlar. U mazkur guruhlashtirish orqali inson hayotida uchraydigan har qanday voqeа-hodisa va narsalarni o‘zida qamrab olgan.

M.Beyker fikriga ko‘ra, manba tildagi biror so‘z boshqa madaniyatga yot bo‘lishi mumkin. Bunday so‘zlar mavhum yoki konkret, diniy e’tiqodga oid va hattoki, oziq-ovqat turini ifodalovchi so‘zlar bo‘la oladi ².

Yuqorida nomlari keltirilgan ikki olim milliylikni ifodalashda asosiy omilni madaniyatni, uni yuzaga chiqaruvchi unsur sifatida esa “madaniyatga oid so‘zlar”ni keltiradilar. Bu g‘arb tarjimashunoslige xos tamoyildir.

Hozirgi davrga kelib, ba’zi zamonaviy g‘arb tarjimashunoslari ham rus maktabiga tayangan holda tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Masalan, K. Klaudi milliylikni va madaniyatni yuzaga chiqarishda asosiy omil sifatida leksik birliklarni, jumladan, “realiya”larni ko‘rsatadi. Olim ushbu termin ikki xil ma’noni anglatishini: u yoki bu til jamiyatigagina xos bo‘lgan obyektlar, fikrlar, ramzlar yoki odatlar (ularning ba’zilari ovqatlar va ichkiliklarga oid) bilan bog‘liq so‘zlar va shu narsalarni belgilash, ta’rif berish uchun ishlatilishi va konsepsiyalarni ifodalash uchun qo’llanilishi mumkin. Shu bilan birga, K.Klaudi bu termin juda katta ma’noni qamrab olishini ta’kidlaydi. Chunki u kishi nomlarini, bayramlarni, titul (unvon)larni va tarixiy voqeа-hodisalarni ham anglatadi ³. K.Klaudidan so‘ng, 2003 yilda o‘z maqolasida yana bir G‘arb olimi D.Tellingler: “Madaniyatga oid xos so‘zlar”, ya’ni “realiya”lar yanada kengroq ma’noni anglatadi va u konkret bir mamlakatgagina tegishlidir, degan fikri keltiradi. U ham tadqiqotlari davomida “realiya”ni juda keng tushuncha ekanligiga, bunday so‘zлarni tarjima qilish juda qiyinligiga ishora qiladi. Uning fikricha, bunday so‘zлarni ikki xil: transliteratsiya va analog berish usullari bilan o‘girish lozimdir ⁴.

G‘arb tarjimashunoslik maktabi vakillari milliylik va madaniyat borasida turli fikrlarni bayon etadilar. Ular asarning asosini madaniyat tashkil etishi, uni boshqa tilda ham to‘g‘ri, aniq berish muhim ekanligini alohida ta’kidlaydilar.

¹ Newmark P. Approaches to translation. Oxford: Pergamon, 1988. – 250 p.

² Baker M. In other words. London: Routledge, 1992. – 303 p.

³ Klaudy K. Fordítás II: Bevezetés a fordítás gyakorlatába, Scholastica: Budapest, 1997. – 285 p.

⁴ Tellinger D. A reálák fordítása a fordító kultúralis kompetenciája szemszögéből // In Fordítástudomány, 2003. – P. 58-70.

Bu borada Sharqda asosan G‘arb tarjimashunosligining ta’siri seziladi. Mazkur maktab vakillarining aksariyati ham milliylikni madaniyat orqali o‘rganadilar. Masalan, turk tarjimashunosi M.Kuleli “Culture specific items in literary texts and their translation based on “foreignization” and “domestication” strategies”⁵ nomli maqolasida milliylikni madaniyat orqali tadqiq etadi va P.Nyumarkning bu boradagi qarashlarini ilgari suradi. Uning fikricha, tarjimonlar bir asar ustida ishlayotganlarida matnni emas, balki madaniyatni tarjima qiladilar. “Madaniyat” so‘ziga uning ta’rifi quyidagicha: “...umumiyoq so‘zlar bilan aytganda, “madaniyat” tushunchasi – umumiyoq qadriyatlar, e’tiqod, urf-odatlar, an’analar, badiiy ifodalar, ramzlar, yozilgan yoki yozilmagan qoidalar kabi me’yorlar, moddiy madaniy meroslar, fantastika va qahramonlar, diniy masalalar, oshxona (taomlar, yeguliklar), sport va tilni anglatadi”⁶.

Pokistonlik tarjimashunoslar ham milliylikni madaniyat orqali o‘rganadilar. G‘arb tarjimashunoslik maktabi vakillari qarashlariga tayangan pokistonlik olimlar fikricha, madaniy xususiyatlar ko‘proq frazeologizmlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, L.Xon “Translation and Culture: A Comparative Analysis of English Idioms and Proverbs with their Urdu Translations”⁷ nomli maqolasida ingliz tilidagi maqol va idiomalarni madaniyat nuqtayi nazaridan urdu tilidagi tarjimalari bilan chog‘ishtirgan holda o‘rgangan. Maqolada L.Xon ingliz tilidagi idioma va maqollarda kelgan milliylik va madaniyat urdu tilidagi tarjimada qanday aks etganini tadqiq etadi. Boshqa bir guruh pokistonlik tadqiqotchilar – Sana Mansur, Abdul Bari Xon, Sundas Zuhra, Sundas Kamran, Zara Ariflar⁸ “A descriptive study of culture related terms in translation of Harry Potter Novel from English to Urdu language” nomli maqolasida ingliz tilidagi Garri Potter asarida kelgan madaniyatga oid so‘zlarni chog‘ishtirib, farqli va o‘xshash jihatlarini o‘rganganlar. Tadqiqot jarayonida ular ham G‘arb olimlari fikrlariga tayanganlar va asardagi taom, joy, sehrli obyektlar, sehrli mavjudotlar, sehrli damlamalar, badiiy to‘qima obrazlar nomlari va shu kabi madaniyatga doir so‘zlarni ingliz va urdu tilidagi tarjimalarini o‘zaro chog‘ishtirib tadqiq qilganlar.

V.Rossels realiyalarning – tarjima qilinayotgan tilga kirib kelgan va asliyat tilida muayyan milliy, mahalliy narsa va predmet yoki tushunchalarning nomini ifodalaydigan so‘zlar⁹, ekanligini ta’kidlaydi.

O.Axmanovaning “Lingvistik atamalar lug‘ati”da “realiya”ga shunday ta’rif beriladi: “Borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa muayyan mamlakatning davlat qurilishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so‘zlar, muayyan tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik”¹⁰.

Rus tarjimashunosi L. Barxudarov realiya terminiga shunday ta’rifni keltiradi: “Realiyalar – shunday so‘zlarki, ular boshqa tilda so‘zlashuvchi xalqlarning tillarida, maishiy turmushlarida mavjud bo‘lmagan leksik birliklardir” Rus tarjimashunosi L. Barxudarov realiya terminiga shunday ta’rifni keltiradi: “Realiyalar – shunday so‘zlarki, ular boshqa tilda so‘zlashuvchi xalqlarning tillarida, maishiy turmushlarida mavjud bo‘lmagan leksik birliklardir”¹¹. Ammo A. Fyodorov ushbu ta’rifga birmuncha tanqidiy qaraydi. A.Fyodorovning fikricha, realiyalar faqat so‘zlar emas, balki muayyan xalqning hayotidagi narsa, predmet va

⁵ Kuleli M. Culture specific items in literary texts and their translation based on “foreignization” and “domestication” strategies. RumeliDE Dil ve Edebiyat Araştırmaları Dergisi. – P.617-653.

⁶ O’sha asar. – B. 621.

⁷ Khan L. Translation and Culture:A comparative analysis of English idioms and proverbs with their urdu translations // Pakistan Journal of translation studies, 2014. – P. 58-82.

⁸ Mansoor S, Bari Khan A, Sundas Z, Sundas K, Arif Z. A descriptive study of culture related terms in translation of Harry Potter Novel from English to Urdu language //Asia Pacific Journal of Multidisciplinary Research, 2016. – P. 44-50.

⁹ Россель В. Перевод и национальное своеобразие подлинника // Вопросы художественного перевода. М.: Сов. писатель, 1955. – С. 172.

¹⁰ Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2-е. – М., 2004.

¹¹ Бархударов Л. Язык и перевод / Л. С. Бархударов. – М.: Междунар. дела, 1975. – С. 142.

voqealari nomini ifodalovchi so‘z va birikmalar hamdir. Olim realiyalar haqida emas, balki real hayotda mavjud narsalarning nomlari haqida gapirishni tavsya etadi¹².

Nazarimizda, realiyalar ustidagi eng to‘liq tadqiqotni bolgar tarjimashunos olimlari S. Vlaxov va S. Florinlar amalga oshirganlar. Ularning fikricha: “Realiyalar – muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlari, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqealari nomini ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalar bo‘lib, ular milliy va davriy xususiyatga egadir”¹³. Ularga ko‘ra, “Realiyalar – shunday so‘z (va birikmalar)dirki, ular obyektlarni ataydi, biror xalq hayoti uchun xarakterga ega (turmush tarzi, madaniyat, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish), lekin boshqa xalqqa yot bo‘lgan, milliy va tarixiy koloritni tashuvchilari bo‘lmish ular, o‘z navbatida, boshqa tilga aniq ekvivalent (mos so‘z va birikmalar)ga ega bo‘lmagan va pirovardida, alohida e’tiborga molik bo‘lib, umumiy asosda tarjimaga moyil emas”¹⁴.

Ma’lumki, til birligi sifatida qaralsa, realiyalar muqobilsiz leksika hisoblanadi. Agar bir tildagi so‘zning muqobili boshqa til lug‘at tarkibida topilmasa, u muqobilsiz leksika bo‘ladi. Bu termin Ye.Vereshchagin va V.Kostomarovlar tomonidan muomalaga kiritilgan. Ular muqobilsiz leksika deganda: “Boshqa til va madaniyatda mavjud bo‘lmagan tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar, ma’lum bir madaniyatga xos so‘zlar, ya’ni biror xalqni A deb olsak, shu A madaniyatiga xos, biroq ikkinchi bir xalqni B deb atasak, B madaniyatida bo‘lmagan madaniy elementlar va A tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning muqobili B tilda mavjud bo‘lmaganligi”¹⁵ni ko‘zda tutadilar.

G.Tomaxin esa “realiya” tushunchasiga biroz farqli yondashadi: “Realiya bu ma’lum bir xalqqa va millatga tegishli bo‘lgan moddiy madaniyat narsalari, tarix faktlari, davlat tashkilotlari, milliy va folklor qahramonlar nomlari, mifologik mavjudotlar va hokazolarga oid nomlar”¹⁶. Bunday ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, G. Tomaxin realiyalarni ko‘proq narsa va buyum sifatida tahlilga tortmoqda, ya’ni, u realiyalarga milliy an’ana va qadriyatlarni kiritmayapti.

Milliy koloritga oid so‘zlar, yuqorida ta’kidlanganidek, fanda muqobilsiz leksika sanaladi. Shu jihatdan rus tarjimashunosi L.Barxudarov muqobilsiz leksikani quyidagi guruhlarga ajratadi:

“1.Boshqa til leksikasida doimiy muqobilga ega bo‘lmagan atoqli otlar, jug‘rofiy nomlar, korxonalar, tashkilotlar, ro‘znomalar va shu kabilar;

2. Boshqa til leksik tizimida mavjud bo‘lgan, kishilar turmushida ishlatilmagan narsalar, tushunchalar va holatni ifodalovchi realiya-so‘zlar;

3. Tasodifiy “lakuna” lar, ya’ni biror tildagi lug‘at birliklari bo‘lib qaysidir sabablarga ko‘ra boshqa til leksik tizimida muqobilga ega bo‘lmagan so‘zlar”¹⁷.

L.Barxudarov “realiya” terminining o‘ziga shunday izoh keltiradi: “Realiyalar – shunday so‘zlarki, ular boshqa tilda gaplashuvchi xalqlarning tillarida, amaliy hayotlarida mavjud bo‘lmagan leksik birliklardir”¹⁸.

Milliylik ma’lum bir millat va xalqning o‘ziga xosligini ifoda etish uchun jahon tarjimashunoslik muktablarida turli xil tushunchalar va terminlar qo‘llaniladi. Masalan, o‘zbek va rus tilshunoslik va tarjimashunosligida “milliy xos so‘zlar”, “xos so‘zlar” yoki “realiya” so‘zları ishlatilsa, chet elda biroz boshqa tushunchalar – “madaniyatga oid so‘zlar”, “madaniyatga oid birliklar” xuddi shu ma’noni anglatishi mumkin. Jumladan, o‘zbek tarjimashunosi E.Ochilov realiyalar haqida quyidagi fikrlarni bayon etadi: “....ana shu milliy kolorit bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va atamalar realiyalar, boshqacha aytganda, milliy xos so‘zlar deyiladi”¹⁹.

Demak, milliy xos so‘zlar o‘zbek va rus tarjimashunosligida “realiya” deb nomlanadi.

¹² Федоров А. Основы общей теории перевода. – М., 1966. – С.123.

¹³ Влахов С, Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980. – С. 228.

¹⁴ O’sha asar. B.. 229

¹⁵ Верещагин Е. Костомаров В. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Русский язык, 1980. – С. 232

¹⁶ Томахин Г. Реалии в культуре и языке // ИЯШ. – № 1 – М., 1981. – С. 37.

¹⁷ Бархударов Л. Язык и перевод. М.: Международные отношения. 1975. – С.93-94.

¹⁸ O’sha asar. B. 93.

¹⁹ Очилов Э.Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент, 2014.– 87 б.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da realiyalarga quyidagicha izoh berilgan: “Realiyalar – (lot. – realis – ashyoviy) – muayyan xalqning turmush tarzi, madaniyati, tarixi bilan bog‘liq betakror, o‘zga xalqlarda uchramaydigan narsa-hodisa, tushuncha; shunday narsa va tushunchalarni anglatuvchi so‘z. Adabiy asarda muayyan davr, joy koloritini berishda, milliy turmush tarzi, milliy ruhni ifodalashda realiyalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni tarjimada adekvat ifodalash katta qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun tarjima amaliyotida realiyalar ko‘pincha aynan berilib, izoh bilan ta‘minlanadi”²⁰.

Ushbu lug‘atda berilgan ta‘rifga ko‘ra, “realiya”larni tarjima qilishda eng afzal usul sifatida transliteratsiya va izoh usuli keltiriladi.

O‘zbek tarjimashunos olimlari tomonidan ham bu mavzuga atroflicha ta‘riflar keltirilgan:

X. Hamroyev: “Realiyalar asar tilining ajralmas qismi bo‘lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etadi, turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to‘g‘ri tasvirlashga yordam beradi,”²¹ – deya izoh keltirgan.

R. Fayzullayeva: “Realiyalarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg‘u asboblari, ro‘zg‘or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me’morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o‘simgilarning nomlari, daraja, unvon, tabaqqa va boshqa bo‘linishlarni ifodalovchi so‘zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so‘z va iboralar kiradi,”²² – degan ta‘rifni keltirib o‘tgan.

X. Hamidovning ““Dunyoning ishlari” qissasi tarjimalarida milliylikning qayta yaratilishi” nomli maqolasida “realiya” va uning tarjimasi haqida quyidagi sodda ta‘rif keltirilgan: “Badiiy asarning milliyligini ifodalaydigan asosiy vositalardan biri maishiy-turmush tushunchalarini anglatadigan so‘zlar – realiyalarning tarjimada to‘g‘ri berilishi original asarning milliy to‘qimasini o‘zga tilda beshikast qayta yaratish muammosini ma’lum ma’noda hal etilishini ta‘minlaydi”²³. Bunda muallif milliylikni saqlashda asosiy belgi sifatida “realiya”lar xizmat qilishiga ishora qiladi.

E. Ochilov tomonidan tuzilgan “Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da realiyaga shunday ta‘rif keltiriladi: “Realiya (lotincha: narsaga, buyumga oid) – u yoki bu millatga xos so‘z va tushunchalar, ya’ni milliy xos so‘zlar. Realiyalar xalqning milliy xususiyatini ifodalab, badiiy asarda milliy koloritni yuzaga chiqaradi. Realiyalarga xalq hayotining moddiy sharoiti va ma’naviy turmush tarzi bilan bog‘liq kishi va joy nomlari, marosimlar, urf-odat va udumlar, kiyimlar, taomlar, ro‘zg‘or anjomlari, cholg‘u asboblari va boshqalar kiradi”²⁴.

Q. Musayev “realiya” haqida shunday yozadi: “Realiya badiiy adabiyot va ommaviy axborot vositalari tiliga xos bo‘lib, ma’lum bir xalq madaniyati bilan chambarchas bog‘langan, aynan shu xalq tili uchun umumishlatiladigan va boshqa xalqqa yot bo‘lgan xarakterga egadir”²⁵.

Demak, realiyalar o‘zi anglatgan ma’noga bo‘yoqdorlik beradi.

“Realiya”lar asarning ajralmas qismi ekan, uning tarjimasida butun bir mamlakatning o‘ziga xosligini aks ettirish yotadi. Har qanday badiiy asar tarjimasida “realiya”lar muhim o‘rin egallaydi. Bu borada N. Vladimirovning quyidagi so‘zlarini keltirish mumkin: “Agar asardagi keyingi voqeа-hodisalarning rivojlanishi ushbu realiya, an’ana yoki udumlarga bog‘liq bo‘lsa, agar muallif ushbu (milliy koloritni ifodalovchi) so‘zga bir emas, bir necha bor murojaat qilsa,

²⁰ Адабиётшунослик лугати. Д. Куронов ва б.– Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 248 б.

²¹ Хамроев Н. Миллий хос сўзлар-реалиялар ва бадий таржима // Таржима маданийти (Мақолалар тўплами). – Тошкент, 1982. – Б. 158.

²² Файзуллаева Р. Йўллар йироқ, кўнгиллар яқин // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). – Тошкент, 1973. – Б. 257.

²³ Ҳамидов X. “Дунёнинг ишлари” киссаси таржималарида миллийликнинг қайта яратилиши // Шарқ машҳали, № 2. – Тошкент, 2015. – Б. 42.

²⁴ Очилов Э. Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати.- Тошкент, 2014. – Б. 54.

²⁵ Мусаев К. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 17.

unda mazkur so‘z yoki so‘z birikmasini tarjima qilmay, rus tilidagi variantini berib qo‘ygan yaxshi.

Agar aksincha, realiya nomi, an’ana va udumlar yoki diniy bayramlar nomlari asarda shunchaki yodga olinsa va asardagi keyingi voqeа va hodisalarga ta’sir ko‘rsatmasa, ya’ni unga hech narsa bog‘liq bo‘lmasa va o‘zgarmasa, u holda tarjimon ushbu so‘zlarni shunchaki bayram, xristianlarning bayrami, an’anasi, udumi yoki shu kabi so‘zlar bilan uning ma’nosi tushuntirmasdan va o‘z navbatida o‘zining qaysidir bayrami yoki udumlariga qiyos qilmasdan tarjima qilgani ma’qul”²⁶.

E.Ochilovning milliylik va tarjima o‘rtasidagi muammolar haqidagi quyida keltirilgan 5 ta fikrlari N.Vladimirovaning qarashlariga mos kelishini kuzatishimiz mumkin:

“1. Asarni tarjima jarayonida to‘la milliylashtirish.

2. Asarni tarjima jarayonida qisman milliylashtirish.

3. Tarjima har qancha asliyatga muvofiq va katta mahorat bilan amalga oshirilgan bo‘lmasin, aksariyat tarjimonlar asardagi ayrim o‘rnlarni, so‘z va tushunchalarni milliylashtirishdan o‘zlarini to‘xtatib qololmaydilar. Milliy o‘zlik har bir tarjimada u yoki bu darajada o‘zini namoyon qiladi.

4. Tarixiy asarlar tarjimasida arxaik so‘zlarni zamonaviylashtirib olish. Bu hol tarixiy koloritni buzadi.

5. Milliy xos so‘zlarni tushunmay noto‘g‘ri tarjima qilish. Bunday xato-kamchiliklar ham tarjimalarda ko‘p uchraydi”²⁷.

Demak, asardagi milliylikni, madaniyatni, o‘ziga xoslikni tarjimada ifodalashda o‘ta milliyashib ketish yoki so‘zma-so‘z o‘girish ham har doim ham to‘g‘ri emas. Bu bilan tarjimon kitobxonda asar yaratilgan xalq haqida, millat madaniyati haqida ham noto‘g‘ri tushuncha hosil qilishiga, anglashilmovchilik yuz berishiga olib kelishi mumkin.

Realiyalar juda keng tushuncha bo‘lib, u rus olimlari tomonidan ham, o‘zbek olimlari tomonidan ham millatning o‘ziga xosligini ifodalashga xizmat qilishi va realiyalarni turli xil guruhlarga ajratilgan holda tadqiq etish lozimligi aytib o‘tilgan. Realiyalarning muayyan koloritni aks ettirish xususiyatlari to‘g‘risida XX asrning 50-yillaridan boshlab tilshunoslar bahs yurita boshlaydilar. Mazkur termin muomalaga rus tarjimashunosi A.Fedorov tomonidan kiritildi.

Har qanday badiiy asarda “milliy xos so‘zlar”ga asardagi milliy koloritni ko‘rsatib berishdagi asosiy unsur sifatida qaraladi. “Milliy kolorit” tushunchasi hali fanda to‘liq o‘rganilgan emas. Uning muammoli, tarjimon va kitobxonni chalg‘ituvchi va bahs-munozaralarga sabab bo‘luvchi jihatlari hali-hanuz mavjud.

Milliy kolorit, milliy o‘ziga xoslikni adekvat tarjima qilish mas’uliyatli vazifa sanaladi. Agar tarjimon asliyatdagi milliy o‘ziga xoslikni to‘g‘ri tushunib, uni tarjimada ham kitobxonlarga shunday yetkazib bera olsa, u juda katta ishni amalga oshirgan bo‘ladi, ya’ni, o‘z millati, kitobxonlarini boshqa umuman begona bo‘lgan millat, xalq bilan tanishtiradi, uning madaniyati to‘g‘risida tushuncha hosil qilishiga sababchi bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuqoridaqgi tadqiqotlarning deyarli barchasida “milliy kolorit”ni ifodalovchi vositalar sifatida xos so‘zlar – “realiya”lar keltiriladi.

Olimlarning realiyalar haqidagi qarashlari, keltirgan ta’riflari deyarli bir-biriga yaqin. Ularning barchasi realiyalarning asosiy vazifasi – asarning “milliy shaklini”, “milliy kolorit”ini aks ettirish, milliy bo‘yoqdorlikni yanada oshirish uchun xizmat qilishidir.

²⁶ Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. – Ташкент, 1957. – С. 66-67.

²⁷ Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент, 2014. – Б. 90-91.

Realiyalar, ularning tilshunoslik va tarjimashunoslikdagi o‘rni, uning ma’no jihatdan guruhlari, asardagi o‘rni, tarjima qilish usullari bo‘yicha o‘zbek, rus va jahon tarjimashunoslida bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 202 б.
2. Larson M. Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence. – Lanham and New York: University Press of America, 1984. – 600 p.
3. Newmark P. A Text Book of Translation. – New York and London: Prentice Hall, 1988. – 200 p.
4. Чуковский К. Искусство перевода. – М., 1968. – 115 с.
5. Россельс В. Перевод и национальное своеобразие подлинника. Вопросы художественного перевода. – М., 1955. – 172 с.
6. Федоров А.. Основы общей теории перевода, М., 1966. – 62 с.
7. Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 218 б.
8. Комилов Н. Бу қадимий санъат. – Тошкент: Адабий мерос, 2000. – 182 б.
9. Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: Дисс. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1972. – 217 б.
10. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – 89 б.
11. Хамраев Х. Воссоздание национального колорита и исторического колорита в художественном переводе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 22 с.
12. Соипова М. Таржимада миллий ўзига хосликни қайта яратиш // Таржима муаммолари. 2-китоб. – Тошкент: 1991. – 72 б.
13. Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент, 2014. – 250 б.
14. Ҳамидов Х. Ўзбек қисса ва романларининг туркча таржималарида миллийлик, бадиийлик ва лисоний адекватлик масалалари: Филол. фан. док. (DSc) ... диссертацияси. – Тошкент, 2021. – 235 б.
15. Шарипов Р. Бадиий таржима. – Тошкент, 2021. – 123 б.
16. Ходжаева Н. Бадиий таржиманинг лексик-стилистик муаммолари: Филол. фан. номз. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 124 б.
17. Исламутлаева Н. Хитой ва ўзбек тилларида лакуналар (Монография). – Тошкент, 2021. – 144 б.
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 том. – М.: Рус тили, 1981. – 464 б.
19. Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык: дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1958. – 184 с.
20. Гафурова Г. К проблеме взаимосвязей узбекской и русской литературы (Вопросы художественного перевода с узбекского на русский язык). Автореф. канд.дисс., Ташкент, 1967. – 18 с.
21. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – 89 б.
22. Соипова М. Таржимада миллий ўзига хосликни қайта яратиш // Таржима муаммолари. 2-китоб. – Тошкент: 1991. – 72 б.